

Ways Of Organizational Encouragement By The State For The Cultivation Of Citrus Fruits In Our Country

Kurbanov Shovki Djurayevich

Associate Professor of the Department of Sectoral Economics
and Accounting, Tashkent University of Applied Sciences

Abstract

As is known, a long-term farming experience in growing citrus fruits has been formed in our country, which is mainly explained by the creation of scientific and theoretical foundations in connection with the cultivation of lemons, the expanding scope of scientific research on the creation of its new varieties, the improvement of scientific research and practical experiments related to its agrotechnology, and the emphasis on the introduction of resource-saving technologies.

Keywords: export, political crises, modern resource-saving, in vitro, Biotechnology laboratory.

Annotatsiya

Ma'lumki mamlakatimizda sitrus mevalar yetishtirishda uzoq yillik dehqonchilik tajribasi shakllangan bo'lib, bu asosan limon yetishtirish bilan bog'liq holda ilmiy-nazariy asoslari yaratilganligi, uning yangi navlarini yaratishga oid ilmiy tadqiqotlar ko'lami kengayib borayotganligi, uning agrotexnologiyasi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar hamda amaliy tajribalar takomillashib, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishga urg'u qaratilayotganligi bilan izohlanadi.

Kalit soʻzlar: eksport, siyosiy inqirozlar, zamonaviy resurs tejovchi, invitro, Biotexnologiya laboratoriyasi.

Kirish: Shu bilan birgalikda so'nggi yillarda global axborot va texnologik oqimlarning ortib borishi sharoitida noan'anaviy bo'lgan sitrus mevalarni mamlakatimiz sharoitida yetishtirishning ilmiy asoslarini o'rganish bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Ayniqsa banan, kivi, mandarin kabi siturs mevlarni yetishtirish tajribasi sekin asta shakllanib bormoqda.

Garchi respublikamizda ko'p miqdorda banan, mango, papaya kabi mevalar yetishtirilmasada, ular tajriba tariqasida ekilayotgan yer maydonlaridan yaxshi hosil olishga erishilgan. Shu bilan birgalikda banan ko'chati chetdan eksport qilinganida donasi 3-5 dollargacha narxlanishi mahsulotning tannarxi oshishiga sabab bo'lgani bois, Akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti

“Biotexnologiya” laboratoriyasida “invitro” sharoitida mahalliy iqlimga mos banan ko‘chatlarini ko‘paytirish ishlari boshlab yuborilgan¹. Undan tashqari onlayn platformalarda mamlakatimizda yetishtirilgan kivining taklifi ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin². Mamlakatimizda shakllanayotgan bunday yangi yo‘nalishlardagi agrobiznes yo‘nalishlari rivojiga, albatta, qulay investitsion muhit, ilmiy fundamental tadqiqotlar, infratuzilma yaratilishi hamda samarali boshqaruv shakllarining joriy etilganligi bilan birgalikda respublikamizda mavjud bo‘lgan bozor talabi ham ijobiy impuls beradi. Ushbu yo‘nalishda tashabbuskor tadbirkorlarning shakllanib borayotganligi, ularning qiziqishlari hamda investitsion qo‘yilmalarining samarali qaytimi uchun qulay muhit yaratib berishda

¹ <https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekiston-sharoitida-banan-etishtirish-mumkinmi>

2 O'zbekistonda kivi yetishtirishning o'ziga xos xususiyatlari – tajribali bog'bon bilan suhbat. <https://east-fruit.com/uz/meva-sabzavot-biznesi/intervyu-uz/ozbekistonda-kivi-etishtirishning-oziga-khos-khususiyatlari-tazhribali-bogbon-bilan-suhbat/>

davlatning tashkiliy rag'batlantirish instrumentlari ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sohada davlat tomonidan ma'muriy aralashuvlarning cheklanishi, nodavlat boshqaruv tuzilmalarining rivojlanishiga huquqiy asoslarning ishlab chiqilishi, o'zini o'zi boshqarish shakllarining rag'batlantirilishi, ular tomonidan bildirilayotgan takliflar hamda yo'nalishlarning ijobiy qabul qilinishi kabi instrumentlar shular jumlasidandir.

Olib borilayotgan agrar islohotlar negizida esa aynan shu kabi sag'lom kayfiyat shakllangan bo'lib, bu nafaqat yuqori tuzilmalarda balki quyi bo'g'inlarda ham agrobiznes tashabbuskorligi munosib rag'batlantirilmogda. Agrar tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularning xar biri bilan individual ishlashda nodavlat boshqaruv tuzilamalarining o'rni beqiyos bo'lib, bu agrar siyosatni yurituvchi davlat boshqaruv organlariga nisbatan ancha samarali ekanligi rivojlangan davlatlar tajribasida o'zini namayon etgan.

Ushbu jihatlarni e'tiborga olgan holda respublikada limon ko'chatlarini yetishtirish va limon yetishtiruvchi issiqxona xo'jaliklarini tashkil etishni jadal rivojlantirish, sohaning eksport salohiyatini yanada yuksaltirish hamda aholi bandligi va daromadlari darajasini oshirish, ayniqsa, qishloq joylarda yangi ish o'rinlari yaratish mexanizmini ta'minlaydigan yagona tashkiliy tizimni barpo etish hamda innovatsion texnologiyalar asosida limon yetishtirishni kompleks rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi PQ-3586-sonli qarori bilan «Limon yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar» uyushmasi tashkil etildi³.

Natijada, respublikada 2018-2019 yillarda 46 mln AQSH dollari miqdoridagi xorijiy

kredit liniyalari jalb qilinib, 730 gektar maydonda zamonaviy limonzorlar barpo etildi, limon yetishtiriladigan issiqxonalar umumiy maydoni 1221 gektarga yetkazildi. Shuningdek, respublikada limonchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, ilg'or va zamonaviy resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llash asosida yuqori sifatli sanoatbop va eksportbop limon yetishtirish hajmini oshirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini keng joriy etish maqsadida 2020 yil 19 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4610-sonli qarori bilan «Limon yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar» uyushmasi «Sitrus, subtropik va tropik o'simlik yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar» uyushmasi⁴ deb qayta tashkil etilib, unga eksport qilish borasida bir qator imtiyozlar taqdim etildi. Shu bilan birgalikda Akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti huzurida Uyushma ishtirokida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi Sitrus, subtropik va tropik o'simliklar ilmiy - amaliy markazi⁵ tashkil etildi.

Sohada olib borilgan tashkiliy islohotlar o'zining ijobiy samarasini berib, sitrus mevalarni yetishtirish va uni eksport qilish hajmi oshishga erishildi. Ammo pandemiya davridan keyin sitrus mevalarga (tarkibida vitamin S saqllovchi mevalarga) bo'lgan iste'mol munosabatining o'zgarishi, talabning ortib borishi, shu bilan birgalikda dunyoda yuz berayotgan siyosiy inqirozlar ta'sirida energiya bilan ta'minlash tizimidagi global siljishlar (asosiy gaz eksport va import qiluvchilarning logistik oqimlaridagi keskin burilishlar), mamlakatimizda sanoatning barqaror rivojlanishi natijasida energiyaga bo'lgan talabning keskin ortishi

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi "O'zbekiston Respublikasida limonchilik sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3586-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/3578440>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.02.2020 yildagi "Limonchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4610-sonli qarori, <https://lex.uz/ru/docs/4741430>

⁵ Shu manba

kabi holatlar issiqxonalarda sitrus mevalarni yetishtirish amaliyotini, uni import qilish geografiyasini o'zgartirish hamda u bilan bog'liq boshqaruv tuzilmalarini modernizatsiya qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Metodlar: Undan tashqari uzoq yillardan beri saqlanib qolayotgan quyidagi bir qator omillar ta'sirida sohada boshqaruv va unga xizmatlar ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Jumladan:


- mayda tovar xo'jaliklariga, xususan dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarning maydonlarida yetishtirilgan mahsulotlarning umumiy hajmi va ularning salohiyatini baholash tizimi mavjud emasligi;
- ushbu xo'jaliklarga ko'chatlar sifati, ularning navlari, kasalliklarga qarshi kurashish tizimi, tabiiy - biologik o'zgarishlari to'g'risida axborot beruvchi, konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi tuzilmalarning yetishmasligi;
- ko'chat, urug' bilan ta'minlovchi tadbirkorlik sub'yektlariga bo'lgan ishonchning shakllanmaganligi, ular bilan hamkorlik qilishning huquqiy jihatlarini hal etilmaganligi, kafolatlangan ko'chatchilik tizimi yo'lga qo'yilmaganligi;
- agroservis xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tuzilmalarda tez tuzilmaviy o'zgarishlarning kuzatilishi hamda ularda kadrlar qo'nimsizligi natijasida o'zaro manfaatli hamkorlikning yo'lga qo'yilmaganligi;
- nodavlat boshqaruv tuzilmalari, xususan tarmoq uyushmasi hamda kooperativlarning yuqoridan pastga qarab vertikal boshqaruv tizimida ishlashi, ularda "pastdan yuqoriga qarab shakllanadigan tizimga nisbatan immuniteti yuqoriligi";
- tabiiy ofatlar natijasida ko'rilgan zararni baholash tizimi yaratilmaganligi hamda qo'llab-quvvatlash maqsadida tezkor rag'batlantiruvchi dastaklarning ishlab chiqilmasligi va boshqalar.

Vol 2. Issue 4 (2025)

Yuqoridagi kabi holatlarning oldini olish, ularning yechimiga qaratilgan Shu bilan birgalikda sitrus mevalar yetishtirish tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash, ularga qulay sharoitlar yaratib berish, kichik hajmda mahsulot yetishtiruvchi dehqon xo'jaliklariga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Sitrus mevalar yetishtiruvchilarga xizmatlar ko'rsatish markazi hamda markaz tarkibida hududlarda faoliyat yurituvchi "Sitrus diagnostika markazlari"ni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Sitrus mevalar yetishtiruvchilarga xizmatlar ko'rsatish markazi (keyingi o'rinlarda - Markaz) mahsulot yetishtiruvchilarga ko'chatdan tortib mahsulotni eksport qilishgacha bo'lgan barcha bo'g'inlarda agroservislarni ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Shuningdek markaz hududlar kesimida aniqlangan muammolar hamda xo'jaliklar tomonidan bildirilgan takliflarni to'g'ridan to'g'ri ochiq manbaalarda e'lon qilish hamda xukumatga taklif sifatida kiritish bilan bog'liq vazifalarni ham bajaradi. Bu eng quyi tizimda faoliyat yuritayotgan mahsulot yetishtiruvchilarning oldida kuzatilayotgan amaliy muammolarga yechim topishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib, qisqa va uzoq muddatli dasturlarni qabul qilishda dasturiy amal sifatida qaraladi.

Natijalar: Shu bilan birgalikda sitrus mevalarni yetishtirish hajmini oshirish uchun qanday qo'llab-quvvatlash dastaklariga zaruriyatlarni tizimlashtirish maqsadida o'tkazilgan so'rovlarda 24 foiz ishtirokchi soliq va kredit imtiyozlari orqali, 20 foizi esa ko'chatchilik tizimini rivojlantirish orqali qo'llab - quvvatlash o'zining samarasini beradi deb hisoblamoqda (2.6-rasm).



2.6-rasm. Sitrus mevalarni yetishtirish hajmini oshirish uchun qanday qo'llab-quvvatlash dastaklariga zaruriyatlar sezilmoqda? (so'rovnomada qatnashgan ishtirokchilarning jamiga nisbatan ulushi, % da)⁶

Undan tashqari energiya bilan uzluksiz ta'minlash tizimini yaratish (17 foiz), sotish va qayta ishlash uchun kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish (16 foiz), tayyor ko'chma mini yengil konstruksiyali issiqxonalarni ijraga berish (12 foiz) kabi qo'llab-quvvatlash dastaklari ham mahsulot yetishtiruvchilarni faoliyatini yanada barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi deb hisoblaydi. Qashqadaryo viloyatida 2022-2023 yillar maboynida jami 50 nafar sitrus mevalarni yetishtiruvchi xo'ajliklar o'rtasida sohada mavjud muammolarni aniqlash, taklif va tavsiyalarni yig'ish maqsadida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalarda ularni qiynab kelayotgan muammolar, xususan sotish tizimidagi qiyinchiliklar hamda rivojlantirish yuzasidan takliflari o'rganildi. O'rganish natijasiga ko'ra mahsulot yetishtiruvchilarni vositachilar ko'pligi, energiya va ko'chatchilik bilan bog'liq muammolar qiynab kelayotganligi hamda uni bartaraf etish uchun imtiyozli kreditlash, uzluksiz energiya ta'minoti kabi dastaklar bilan qo'llab – quvvatlash taklif etilmoqda.

Xulosa: Olib borilgan tahlillar hamda monografik o'rganishlar natijasida Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirish hajmi, uning yer maydoni hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari yildan yilga ortib borayotgan bo'lib, mahsulot yetishtiruvchilar mavjud sharoitlardan optimal foydalangan holda qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Qurbonov Sh. Sitrus mevalarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni: mandarin misolida tahlil. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 110-113 b.
- Qurbonov Sh. "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda sitrus mevalarining o'ziga xos xususiyatlari mandarin mevasi misolida" Didactic Innovations in Education International research journal » Volume 1/ 2024. – 2-8 b.
- Qurbonov Sh. "Sitrus mevalarni tarixiy evalutsiyasini talqin etish va iqtisodiy rag'batlantirishni jadallashtirish". Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni taminlash muammolari ilmiy konferensiya// – T.: 2021. №2(20). – b. 241-245.
- Qurbonov Sh. Qashqadaryo viloyatida sitrus mevalar yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini tahlili. "Sonference of natural and applied sciences in scientific innovative research" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Volume 1. Issue 9. September 2024.
- Qurbonov Sh. Sitrus mevalarini yetishtirishning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 110-113 b.
- Кейнс Д.М. Общая теория занятости, процента и денег. — М.: 1978.

⁶ Qashqadaryo viloyatida o'tqazilgan ijtimoiy so'rovnomalar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- Куликов И.М. Научная и инновационно-инвестиционная стратегия развития плодо-ягодного комплекса АПК как важнейший резерв в формировании здорового организма человека в XXI веке // Сборник статей. — М., 2006. — С. 9–31, с ил. — 157 с.
- Мамедов Р.Ш. Антикризисный механизм хозяйствования в АПК России. — М.: Агро-Пресс, 2000. — 90 с.
- Mirzayev M.M., Sobirov M.K. Bog'dorchilik. — Toshkent: Mehnat, 1987. - В. 207-217.